

## ATROF MUHITNING IFLOSLANISHI VA EKOLOGIK MUOMMOLAR

*Tashmatova Sevara Abdimo'minovna**Toshkent viloyati Olmaliq shahar 11-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada atrof muhit va ekologik muammolar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Atrof-muhit, ekologiya, muammo, fikrlash, mantiq, nazariy, havo, atmosfera, ozon qatlami, suv muhiti, litosfera.

**Kirish:** Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash chiqindilar bilan bogliq muammolarni hal etish borasida davlat boshqaruvi nazorat tizimini takomillashtirish maqsadida shuningdek "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid dasturda hal etiladigan vazifalarni hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi. bu albatta kelajagimizga juda katta e'tibordir.

Atrof muhitlar: havo, suv, tuprog' - u zamin, o'simliklar, hayvonlar olami ko'plab muhim omillarning tabiiy sifat va miqdor ko'rsatgichlari keskin o'zgargan. Bunga asosiy sabab inson barcha tur tabiiy manbalarda iste'molchilikka yo'l qo'yib atrof muhitga katta ziyon yetkazilgan. Hozirgi vaqtgacha yer yuzida 80 mlrd. Dan ortiq kishilar (Fransiyalik olimlarning hisob kitobi) va so'zsiz tabiatga, turli davrlarda turlicha ta'sir ko'rsatgan. Albatta dastlabki davrlarda, ya'ni odamlar son jihatdan unchalik ko'p bo'lmagan, ibtidoiy zamonlarda, tabiiy hududlar yetarli darajada mo'l bo'lgan atrof-muhit o'z tabiiy ko'rsatgichlarini tiklab turishga muvaffaq ham bo'lgan. O'zini-o'zi tiklay olish hislati tabiatga xos ekanligi ilmiy manbalarda yetarli darajada asoslab berilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda 1000-yil oldin odamzot yer yuzida bir necha yuz million kishinigina tashkil etgan, XX asr boshiga kelib 1,5 mlrddan sal ortiqroq bo'lgan.

So'ngra demografik o'sish nihoyatda kuchaygan. O'tgan asrda ilm - fan va texnik kashfiyot ixtirolar turli soha ishlab chiqarishlarida keng qo'llanila boshlandi ham. Buning negizida so'zsiz borayotgan insoniyat talabini qondirish talabi yotadi

Kerakli barcha modda, mahsulot va materiallar faqat tabiiy manbalardan foydalanish hisobigagina olinib boshlandi: o'rmonlar qirildi, yerlar qishloq xo'jaligi foydalanish uchun o'zlashtirildi, ko'plab suv omborlari tashkil etildi, turli-tuman yer ustki va yer osti qazilma boyliklar qazib olinib qayta ishlana bordi. Xullas dunyo miqyosidagi har xil sanoat korxonalari, texnik transport vositalari, energetika inshoot

vositalari faoliyat ko'rsata boshladi. Ko'pchilikka ayonki, bu texnologik qurilmalarning barchasi atrof-muhitga o'ta zararli yot unsurlar chiqaradi. Ko'pincha bu mahsulotlar qayta ishlanmaydi, yo zararsizlantirmasdan tashlab yuboriladi. Bu holat keyinchalik tarkibi o'zgarib, turli xil muammolar yuzaga keladi. Quyida yerda shu holat natijasida 4 asosiy hayotiy muhitlar misolida ma'lumotlar keltirilgan:

**Havo \_\_\_ muhitining ifloslanishi.** Ma'lumki barcha tabiiy omillar uchun eng zarur havo muhitidir. Yerdagi jami jonzorlar, tirik organizmlar, hamda jonsiz tabiat mineral jinlar o'rtasidagi uzluksiz modda energiya almashinish jarayonlarini amalga oshirishini ta'minlaydi. Havo muhiti bo'lmaganda hayot ham bo'lmas edi.

Yer ob-havosi, uning iqlim sharoitini davriy takrorlanib turishi uchun zarur. Quyosh nurlari vositasida har xil kimyoviy, fizik-kimyoviy jarayonlar xavfli kimyoviy jarayonlarni hosil qilishi kuzatuv va tadqiqotlar natijasida isbotlangan.

Masalan kislotali yomg'irlar, turli rangdagi yog'ilgan qorlar, "OZON YORIG'I", va "ATMASFERA DIMIQISHI" kabi muammolar aynan shunday o'zgarishlarning natijasidir. Xususan sanoati va texnik vositalari nihoyatda ko'p bo'lgan Yevropa mamlakatlari havo muhitida kuzatiladigan achchiq (ko'zni yoshlantiruvchi) qora qurum (smog)lar ham havoga chiqarib yuborilayotgan zaharli gaz moddalar va ulardan hosil bo'lgan birikmalar mahsulotlari hisoblanadi.

Hozirgi davrga kelib is gazi, karbon, azot va oltingugurt oksidlari metan va boshqa birikmalar tashlab yuboriladi. SHunga o'xshash chiqindi gazlar qozonxona, issiqlik stansiyalari, turli texnik transport vositalaridan chiqarib yuboriladi. O'tkazilgan hisob-kitoblarga ko'ra, shu narsa ham aniqlandiki 1 ta yengil avtomashina 1 yil davomida o'rtacha harakakat faoliyati bilan 2 tonna benzin sarf qiladi. Buning uchun havo muhitidan 30 t kislorodni olib 60 kg is gazi, 50 kg metan 30 kg azot oksidlari, 5kg turli aralashmalar 3kg gacha oltingugurt oksidi ajratadi. Havo muhiti bilan bog'liq turli ekologik muammolarni hal etilish bo'yicha turli chora tadbirlar ishlab chiqilmasa yerda kelgusida hayot katta xavf ostida qolishi mumkin. SHu holatlarni hisobga olib dunyo yakdillik bilan atmosfera muhofazasiga doir chora tadbirlar ishlab chiqqan.

### **Suv muhiti va uning ifloslanishi.**

Tabiatda suv istemolga yaroqli suv manbalari va ulardagi suv miqdorlari chegaralangan.

Mavjud bo'lgan suv manbalari turli oqava va chiqit moddalar aralashishi tufayli ifloslanmoqda. Hozirgi davrda dunyo miqyosida, ichimlik suvi tanqisligi muammosi yuzaga kelgani ham ko'pchilikka ma'lum. Ma'lumki iflos oqava suvlar, odatda, 2 xil yo'l bilan sodir bo'ladi: 1- tabiiy omillar sabab yog'in-sochinlar natijasida, masalan katta korxonalar hududida paydo bo'ladigan iflos oqovalar, sel va suv toshqinlari natijasida iflos suvlar kirishi

2-yo'l, bu sanoat korxonalari, xonadonlar, kommunal maishiy xo'jaliklar faoliyati bilan yuzaga keladigan katta miqdordagi tashlandiq oqava suvlari

Tabiiy hodisalar natijasida yuzaga keladigan suvning ifloslanishi tabiiy jarayonlar orqali tozalanishi ma'lum, lekin sanoat oqova suvlarining tabiiy yo'l bilan tozalanishi qiyin.

**Litosferadagi o'zgarishlar-tuproqlarning ifloslanishi.** Davrlar o'tishi bilan Yer yuzasi qatlamlarining tarkib tuzilmasi va sifat ko'rsatkichlari ham o'zgarib borayotgani kuzatilmoqda. Odamlarning yer yuzida ko'payishi, ya'ni demografik omil sabab, hozir odam oyog'i yetmagan joy qolmadi. Inson qayerda o'zi, ehtiyoji uchun tabiatdan foydalanadi. Insoniyat faoliyati natijasida litosferaning tarkib tuzulmasi, yerdagi barcha tabiiy manbalar holati, yer landshaft tuzulmasida ham o'zgarishlar kuzatilmoqda. Sanoat korxonalari, energetika tarmog'i va boshqa sohalarni xomashyo bilan ta'minlash litosfera qa'ridan tabiiy gaz, neft, ko'mir va boshqa har xil ma'danli va qazib olinmoqda, yer osti suvlaridan ham jadal foydalanilmoqda. Natijada tabiiy manbalar zahiralarning kamayishi, hatto litosfera qatlamlari tarkibida har xil ko'rinish va hajmlarda bo'shliqlar paydo bo'lishi yer qatlamlarida siljishlar kuzatilmoqda.

Yuqoridagi o'zgarishlar tufayli yer osti qatlamlariga oid tektonik kuch va jarayonlarning har xil ko'rinishida tasviri ham namoyon bo'lmoqda. Yer ko'chmalari har xil darajadagi silkinish va bosha turdagi abiotik voqea hodisalar borgan sari ko'paymoqda.

### **Biosfera o'zgarishlari har xil kasalliklarning vujudga kelishi.**

Yuqorida bayon qilinganidek, atrof-muhitga chiqarib tashlanayotgan gaz, suyuq oqova va qattiq holatlardagi chiqit moddalar hozirning o'zida tabiatga katta ziyon yetkazmoqda. Turli ekologik muammolar hozir biosfera (o'simlik va hayvonot olami)ni qamrab olgan. Bunga eng yaxshi dalil o'simlik zararkunandalarning ko'payishi, kasallanishi, va ular mahsulotlarining kamayishi, hayvonot olamida

kuzatiladigan turli kasalliklar, hatto biologik turlarning yo'qolib borayotganligi buning dalilidir. Yil sayin o'simlik va hayvonot dunyosida ko'plab biologik turlarning yo'qolib borayotganligi sababli ularni muhofaza qilish bo'yicha turli chora tadbirlar ham ko'rilmogda. Turli davlatlarda jumladan, O'zbekistonda ham, ko'plab "Qo'riqxonalar" va "Davlat buyurtmaxonalari" tashkil qilinganligi o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishning usullaridan biridir.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. I. Karimov XX1 asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari - T., O'zbekiston, 1997
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T. "O'zbekiston", 1999
3. Roziqov K. Atrof-muhit va inson ekologiyasi muammolari, T. - TITLP
4. Roziqov K, To'xtayev S, Nigmatov A, Sultonov R. Ekologiya va atrof-muhit haqida yeti saboq. T., "Bioekosan" 2004
5. Ergasheva A. Umumiy ekologiya O'qituvchi 2002
6. Ekologiya va hayot - T. O'zbekiston 2002
7. P.S. Sultonov, "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari" Toshkent 2007